



2022- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


2022- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil etdi.

105,7 %

1628,3
mlrd. so'm


Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 90,1 %, yoki 1466,8 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 108,2 % tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 9,9 %, yoki 161,5 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,0 % tashkil etdi.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da



2022- yilning yanvar-mart oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 611,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 37,6 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,1 % i yoki 262,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 431,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,9 % va shuningdek jami hajmdagi ulushi 26,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari



Shuningdek, Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 235,8 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,5 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,2 foizli punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 74,8 mlrd. so'm (4,6 % va 14,6 foizli punktga oshdi), Xorijiy investitsiyalar 78,9 mlrd. so'm (4,8 % va 13,2 foizli punktga oshdi), Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 278,0 mlrd. so'm (17,1 % va 7,9 foizli punktga oshdi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 19,4 mlrd. so'm (1,2 % va 27,7 foizli punktga kamaydi), Respublika byudjeti 65,6 mlrd. so'm (4,0 % va 29,6 foizli punktga kamaydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 1,7 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,2 martaga oshdi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilgan ivesititsiyalar bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 martaga oshdi.

Respublikaning barcha tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlari va gaz ta'minoti loyihalarining bajarilishi, va shuningdek temir yo'l yo'lovchi transporti va yuk transportini yanada takomillashtirish ishlari bo'yicha loyihalar investitsion faollik bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati ko'rsatkichi aholi mablag'lari hisobidan kuzatilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,4 % ni tashkil qildi.

***Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tumanlar kesimida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar:***


	<i>Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr. so'm</i>	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>		
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari</i>	<i>Aholining o'z mablag'lari</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1628,3	65,6	611,8	262,3
Nukus sh.	440,6	38,3	323,8	31,7
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	77,9	0,1	12,8	26,0
Beruniy	75,5	0,2	17,3	30,5
Bo'zatov	24,5	5,4	1,0	2,7
Qorao'zak	99,3	2,2	10,8	5,5
Kegeyli	24,3	1,2	5,0	5,4
Qo'ng'irot	167,5	1,3	64,2	10,0
Qonliko'l	18,9	0,4	2,7	9,0
Mo'ynoq	301,9	2,3	81,1	7,0
Nukus	43,8	4,8	4,7	20,6
Taxiatosh	47,5	1,2	12,5	9,2
Taxtako'pir	14,1	0,4	1,8	6,0
To'rtko'l	93,3	1,2	15,9	28,4
Xo'jayli	36,6	0,5	10,6	14,7
Chimboy	56,7	5,6	8,0	25,8
Shumanay	32,4	0,1	14,6	7,1
Ellikqa'a	73,5	0,4	25,0	22,7



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>			
	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	431,7	1,7	19,4	235,8
Nukus sh.	22,0	1,7	-	23,1
tumanlar:				
Amudaryo	1,5	-	18,3	19,2
Beruniy	14,6	-	-	12,9
Bo'zatov	1,3	-	-	14,1
Qorao'zak	65,2	-	-	15,6
Kegeyli	4,4	-	-	8,3
Qo'ng'iroq	74,7	-	-	17,3
Qonliko'l	1,2	-	-	5,6
Mo'ynoq	195,6	-	-	15,9
Nukus	3,3	-	-	10,4
Taxiatosh	7,6	-	-	17,0
Taxtako'pir	0,6	-	-	5,3
To'rtko'l	24,9	-	-	22,9
Xo'jayli	1,1	-	-	9,7
Chimboy	5,8	-	0,5	11,0
Shumanay	1,0	-	-	9,6
Ellikqal'a	6,9	-	0,6	17,9

**2022- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**



o'sish sur'ati, % da *Investitsiyalar hajmi, mldr. so'm* *Respublikadagi ulushi, % da*



Qo'ng'irot tumani



Qonliko'l tumani




Mo'ynoq tumani



Nukus tumani




Taxiatsosh tumani



Tuxtako'pir tumani





To'rko'l tumani

*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da mlrd. so'm*



*Respublikadagi
ulushi, % da*



Xo'jayli tumani



Chimboy tumani



Shumanay tumani



Ellikqa'a tumani




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 325,0 % ga o'sib, Mo'ynoq tumanida kuzatildi. Bu asosan tabiiy gazni qazib olishga o'zlashtirilgan investitsiyalar bog'liq.

Shuningdek, Bo'zatov tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 303,7 % ni tashkil qildi. Irrigatsiya tarmoqlari va inshootlari, qishloq joylarda namunaviy loyihibar asosida ko'pxonadonli turar-joylarning qurilishiga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

**2022- yil yanvar-mart oylarida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan
investitsiyalarning o'sish sur'atlari,
% da**



**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan
investitsiyalarning texnologik tarkibi, % da**





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 695,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 42,7 % ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 806,3 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 49,5 %) va boshqa harajatlarga 127,0 mlrd. so'm (7,8 %) o'zlashtirildi.

Tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qo'ng'iroq tumanida kuzatildi – 84,3 % yoki 141,3 mlrd. so'm, va ushbu tumanda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng quyi daraja – 10,6 % yoki 17,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qorao'zak tumanida kuzatilib, 10,9 % ni yoki 10,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga
o'zlashtirilgan
investitsiyalarning takror
ishlab chiqarish tarkibi**

Yangi qurilish-
38,9 %

Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 29,7 %


Boshqa yo'nalishlar-
31,4 %

Joriy hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 633,3 mlrd. so'm va jami hajmdan ulushi 38,9 % tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirildi. Va hajmi 483,5 mlrd. so'm va jami hajmdan ulushi 29,7 % tashkil etdi.

Boshqa yo'nalishlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 511,5 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 31,4 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, yakunga nisbatan % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

mldr. so'm

	Jami	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	431,7	78,9	74,8	278,0
Nukus sh.	22,0	3,7	18,3	-
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	1,5	-	1,5	-
Beruniy	14,6	-	4,7	9,9
Bo'zatov	1,3	-	1,3	-
Qorao'zak	65,2	13,5	0,7	51,0
Kegeyli	4,4	3,5	0,9	-
Qo'ng'irot	74,7	48,7	26,0	-
Qonliko'l	1,2	0,9	0,2	0,1
Mo'ynoq	195,6	3,0	-	192,6
Nukus	3,3	-	1,0	2,3
Taxiatosh	7,6	-	0,8	6,8
Taxtako'pir	0,6	-	0,6	-
To'rtko'l	24,9	-	10,5	14,4
Xo'jayli	1,1	-	0,2	0,9
Chimboy	5,8	5,6	0,2	-
Shumanay	1,0	-	1,0	-
Ellikqal'a	6,9	-	6,9	-

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 431,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 26,5 % ini tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 78,9 mlrd. so'mni tashkil etib, xorijiy kreditlar hisobidan bo'lsa 352,8 mlrd. so'mni o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da

8,1 %



Qishloq xo'jaligi

59,0 %



Tog'-kon sanoati

18,8 %



Qayta ishlash sanoati

6,7 %



Tashish va saqlash

3,6 %



Elektr energiyasi, gaz, bug' bilan ta'minlash

0,9 %



Axborot va aloqa

2,9 %

Boshqalar

Investitsiyalar va qurilish statistikasini bo'limi

Aloqa telefoni: **(61) 224-92-14**
222-75-91